# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№5
MAXSUS SON

Google Scholar · OPEN ACCESS · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY · OpenAIRE · ROAD · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU · Academic Resource Index ResearchBib · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · CYBERLENINKA · BASE · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL · Crossref

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**



**“Yuksak intellektual yoshlar hamdo‘stligi–kelajak iqtisodiyot poydevori”** talabalar xalqaro festivali doirasida o‘tkazilgan **“O‘zbekistonning “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”** mavzusidagi maqolalar to‘plami

ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2024-yil
17-18-oktabr

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 131 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 19-aprelda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

**Ekspertlar kengashi:**
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

**Board of Experts:**
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.



# O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT XARAJATLARINI DAVLAT BUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI

**Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi**
TDIU, 3-kurs talabasi
Email: rosy270305@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning ahamiyati yoritilgan bo'lib, bunda bir qator iqtisodchilarning "yashil" iqtisodiyotga oid nazariyalari, shuningdek, davlat budjetidan ajratilgan iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq xarajatlar va iqlim o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "yashil" iqtisodiyot, "yashil" moliyalashtirish, "yashil" taraqqiyot, "yashil" texnologiyalar, issiqxona gazlari emissiyasi, atrof-muhit, iqlim o'zgarishi.

Abstract: This article covers the importance of the transition to a "green" economy in Uzbekistan, analyzing the theories of a number of economists regarding a "green" economy, as well as the costs associated with climate changes allocated from the state budget and the costs that positively affect climate change.

Key words: "green" economy, "green" financing, "green" development, "green" technologies, greenhouse gas emissions, environment, climate change.

Аннотация: В этой статье освещается важность перехода к "зеленой" экономике в Узбекистане, в которой анализируются теории ряда экономистов о "зеленой" экономике, а также расходы, связанные с изменением климата, выделяемые из государственного бюджета, и расходы, которые положительно влияют на изменение климата.

Ключевые слова: "зеленая" экономика, "зеленое" финансирование, "зеленое" развитие, "зеленые" технологии, выбросы парниковых газов, окружающая среда, изменение климата.

## KIRISH

Bugungi kunda insoniyat ko'plab tahdidlar oldida ojiz qolmoqda. Aholi ko'payishi va buning natijasida tabiiy resurslar zaxirasi qisqarib borishi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanib, bunday nomutanosibliklar albatta dunyo mamlakatlari o'rtasida vahima uyg'otayotgani hamda ularni tang ahvolga tushib qolayotgani ham bor gap. Jahon amaliyotida hududlarni izchil o'rganish, ularning iqtisodiy va ekologik tizimlarini bir-biriga bog'lagan holda tahlil qilinishiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Ekspertlar vaziyatni o'nglash uchun "yashil taraqqiyot" tamoyillarini iqtisodiyotda qo'llash taklifini berishmoqda. Va mazkur masalalar BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarida ham o'z ifodasini topayotgani bizga ma'lum. Albatta mamlakatlarning rivojlanishi hududlarning barqarorligi hamda resurslardan oqilona va samarali foydalanish bilan uzviy bog'liq. Ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, uning o'sishi va sohalarning qanchalik uzoq davom etishini ta'minlash esa resurslarning mavjudligiga bog'liq. Bu esa iqtisodiy va ekologik tizimlarni bir-biriga uyg'unligini ta'minlashni talab etadi.

Ishlab chiqarishda uglerod chiqindilarini kamaytirish, "yashil" issiqxonalarni ko'paytirish, avtomobillarni elektrlashtirish hamda "yashil" transport vositalari, "yashil" texnologiyalar asosida suvni qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish, ekologik toza va zarari kam bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir. "Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish barcha mamlakatlar o'rtasida ham, O'zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish O'zbekistonga ko'plab afzalliklar olib keladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, aholi sonining ko'payishi, albatta,

daromadlar oʻsishiga olib keladi. Bunday vaziyatda, energetika resurslariga talabning oshishi kuzatiladi. “Yashil” iqtisodiyotning muhim komponenti hisoblangan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish va foydalanish uchun Oʻzbekistonda yetarlicha salohiyat mavjud. Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitoblariga qaraydigan boʻlsak, respublikamizdagi muqobil energiyaning zaxirasi xususan quyosh energiyasining yillik zaxirasi 270 million shartli yoqilgʻi ekvivalentiga teng.

Mamlakatimizda “Yashil” iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish, resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish hamda global miqyosda yuz berayotgan ekologik inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019 - 2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi tasdiqlandi.[1] Ammo 2020- yil mamlakatda koronavirus (COVID 19) pandemiyasi tufayli ushbu strategiyani jadal suratlarda amalga oshirish imkoniyati cheklandi.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” qarori tasdiqlandi va aniq maqsadlar belgilab olindi.[2] Qarorga muvofiq, 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yilgi koʻrsatkichdan 35 foizga kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan koʻprogʻiga yetkazish, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, oʻrmon fondi zaxiralarini 90 million kub metrdan oshirish belgilandi. Shuningdek, 2030-yilga qadar metan emissiyasini 2020-yilga nisbatan kamida 30 foizga kamaytirish hamda “yashil” texnologiyalarni ishlab chiqarish uchun moliyaviy ragʻbatlantirish kabi masalalar belgilandi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil iqtisodiyot”ga oʻtishdagi muhim masalalardan biri bu, albatta, moliyalashtirish hisoblanadi. Koʻplab adabiyotlarda “yashil” yoki “ekologik” moliya kabi atamalarning umumqabul qilingan taʼriflari mavjud emas. Aksariyat adabiyotlarda “yashil moliyalashtirish” tushunchasiga taʼrif berilmagan. Ammo, umumiy olganda yashil moliya deganda ekologik toza, past uglerodli loyihalarni amalga oshirishda, ekologik atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan investitsiyalar va boshqa shunga oʻxshash moliyaviy dastaklar yigʻindisini tushunish mumkin. Atrof-muhit muhofazasini amalga oshirishni moliyaviy mablagʻlarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Shu bois Gorbacheva T.A. va Bunevich K.G. oʻz tadqiqotlarida “Yashil moliya”, “Yashil investitsiyalash” kabi tushunchalar haqida izlandilar. “Yashil moliya” vositalari nafaqat iqtisodiy foyda olish balki atrof-muhit muhofazasi uchun ham moʻljallangan, deya fikrlarini bayon etishgan.[3]

Bundan tashqari, Patrik Söderholm oʻzining tadqiqotlarida 5 ta asosiy muammoni tahlil qilgan. Bular, tarqalgan va tobora global tus olayotgan ekologik xavflarga qarshi kurash, barqaror texnologik oʻzgarishlarni faqat ozgina emas, balki tubdan amalga oshirish; yashil kapitalizm va anʼanaviy biznes-ssenariyning noaniqligi; davlatning roli va tegishli siyosat aralashmalarini ishlab chiqish; taqsimot bilan bogʻliq masalalar va ularning taʼsirini hisobga olish. [4]

Bu borada mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari tomonidan ham atroflicha oʻrganilgan boʻlib, jumladan, Xashimova S.N. oʻz tadqiqotlarida “yashil” iqtisodiyotga oʻtish zaruriyati, omillari, tamoyillari va konsepsiyasi yoritilgan. “Yashil” iqtisodiyotga oʻtish jarayonini moliyalashtirish, “yashil energetika”ni barqaror rivojlantirish, ekologik siyosat va uni amalga oshirish mexanizmlari, Oʻzbekistonda “yashil” iqtisodiyotga oʻtishning ustuvor yoʻnalishlari va xorij tajribasi bayon etilgan.[5]

Urunbayev S.S esa bugungi kunga qadar tabiiy kapitalni jamgʻarish bilan bogʻliq boʻlgan iqtisodiy jarayonlar, yashil iqtisodiyot modellari va tamoyillaridan keng foydalanish va shu bois, iqtisodiy va ekologik muammolarning oʻzaro bogʻliqligiga asoslangan yashil iqtisodiyot isteʼmol va ishlab chiqarishning amaldagi iqtisodiy modelini cheklovchi mexanizmga aylanishi mumkinligi haqida oʻz tadqiqotlarida izlanishlar olib borgan. [6]

T.K Iminov, A.V. Vahobov, T.Z. Teshaboyev va M.T. Boʻtaboyevlarning tadqiqotlarida “yashil” iqtisodiyotni amalda qoʻllashda xorij tajribasi, sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy va ekologik muammolar izchil oʻrganilgan. [7]

Jahon tajribasidan maʼlum boʻlishicha, iqtisodiyotda “yashil” texnologiyalardan foydalanish aholining yashash sifatiga ijobiy taʼsir koʻrsatibgina qolmay, shaharlardagi hayotning qulaylashishi, bolalar oʻlimining qisqarishi, oʻrtacha umr koʻrish davomiyligining uzayishiga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun xalqaro miqyosda erishilgan natijalarga tayanish orqali tadqiqotlarni amalga oshirish hanuzgacha muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik jadvallardan, qiyosiy tahlillar, maʼlumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalangan holda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun taʼlim va fan oʻrtasidagi

hamkorlikning ahamiyati aks ettirilgan. Shuningdek, bir nechta iqtisodchilarning ushbu mavzu bo'yicha o'rgangan tadqiqotlari tahlil qilingan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyoti tabiiy zaxiralardan foydalanish borasida tobora samarali harakatlarni olib bormoqda va so'nggi 30 yil ichida materiallar, energiya, uglerod chiqindilari va suv bo'yicha samaradorlik oshgan. Ammo, ular markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rtacha ko'rsatkichlardan ancha past bo'lib qolmoqda. Mamlakatimiz taraqqiy etishiga qaramay, tabiiy zaxiralardan foydalanish hajmi o'sib, tabiiy kapitalga nisbatan bosim ortmoqda. O'zbekistonda issiqxona gazlari chiqindilarining umumiy hajmi Markaziy Osiyodagi mamlakatlar orasida Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda, yalpi ichki mahsulot (YAIM) birligiga nisbatan to'g'ri keladigan chiqindilar bo'yicha esa dunyoda beshinchi o'rinni egallagan.

O'zbekistonda yashil rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (BMTTD) hamda Fransiya Taraqqiyot agentligi (FTA) o'zining "O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanishni moliyalashtirish" loyihasi bo'yicha kelishuv imzoladi. Bu loyiha mamlakat moliyasidan samarali foydalanish moliyalahtirish uchun zarur bo'lgan davlat va xususiy resurslarni jalb qilishga qaratilgan bo'lib, "yashil budjetlashtirish, "yashil" loyihalarga investitsiya jalb qilish, moliyaviy vositalarni joriy etish orqali yashil rivojlanishga ko'maklashishga qaratilgan.

BMTTD yordamida O'zbekiston iqlim budjetini markirovkalash (IBM) modelini ishlab chiqish hamda joriy qilishga o'z e'tiborini qaratgan. IBM modeli budjet qarorlarida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarga ko'proq e'tibor qaratish va ushbu faoliyat yuzasidan amalga oshirilgan strategiyalarni kuzatishga asoslangan. IBM modelining dastlabki natijalari 2023-yil "Fuqarolar uchun budjet" doirasida taqdim etilgan va bu natijalar "Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq davlat xarajatlari va institutsional tahlil" ya'ni CPEIR natijalariga mos keladi.

1-jadval. Davlat budjetidan ajratilgan iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq xarajatlar. [8]

| 2022-yil | Jami iqlim o'zgarishi bilan bog'liq "ijobiy" xarajatlar | Iqlim ta'sirini yumshatish bilan bog'liq "ijobiy" xarajatlar | Iqlim o'zgarishiga moslashish bilan bog'liq "ijobiy" xarajatlar | Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq "salbiy" xarajatlar (barchasi ta'sirini yumshatish bo'yicha) |
|---|---|---|---|---|
| Jami xarajatlar, milliard so'mda | 26 302,4 | 612,7 | 25 414,8 | 1 006,0 |
| Jami davlat budjeti xarajatlariga nisbatan foizda | 11,1% | 0,3% | 10,7% | 0,4% |

O'zbekiston Davlat budjetining 11,1 foizi iqlim o'zgarishi natijalarini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan va ularning katta qismi iqlim o'zgarishiga moslashish bilan bog'liq. Bundan tashqari, tahlil natijasida Davlat budjetining 0,5 foizidan kam bo'lgan qismi esa iqlim o'zgarishi bilan bog'liq faoliyat natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xarajatlarini tashkil etgan (1-jadval).

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi birinchi marta 4,25 trillion so'm miqdoridagi "yashil" suveren obligatsiyalar hamda qiymati 660 million dollarga teng bo'lgan xalqaro obligatsiyalarini London fond birjasiga joylashtirdi. Ushbu faoliyatdan tushadigan daromadlar suvni tejaydigan texnologiyalar yaratish, temir yo'l va matro transportini rivojlantirish, sanitar tozalash ishlarini tashkillash va suv inshootlarini qum bosishidan asrash uchun ihota daraxtzorlarini barpo etish kabi maqsadli yashil loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan.[8]

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston hududida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, asosan kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy o'sish, shuningdek, oziq-ovqat va ekologik xavfsizlikni saqlash borasida salbiy ko'rsatgichlar o'sib bormoqda. Bu vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida esa iqlim o'zgarishini yumshatish, unga moslashish hamda iqtisodiy o'sishning "yashil" va inklyuziv modelini rag'batlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu davr mobaynida iqlimga ijobiy ta'sir qilayotgan xarajatlar o'sdi.

2-jadval. 2020-2022-yillarda funksional tasniflar kesimida iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar (milliard so‘mda). [9]

| Funksional tasniflash sektori | Funksional tasniflash guruhi | 2020-yil | | 2021-yil | | 2023-yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Mlrd so‘m | % | Mlrd so‘m | % | Mlrd so‘m | % |
| Keng aholiga xizmat ko‘rsatish | Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat boshqaruvi, moliya va fiskal munosabatlar, tashqi ishlar idoralari | 289,4 | 2% | 1 442,1 | 9% | 4 233,7 | 16% |
| Iqtisodiy munosabatlar | Qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik va ovchilik qilish | 6 402,7 | 43% | 8 212,8 | 49% | 13 618,0 | 52% |
| | Transport | 5 073,2 | 34% | 2 607,6 | 16% | 3 509,7 | 13% |
| | Iqtisodiy munosabatlar (boshqa guruhlarga taalluqli bo‘lmagan) | 0,3 | 0% | 9,5 | 0% | 153,5 | 1% |
| Atrof-muhit muhofazasi | Atrof-muhit muhofazasi (boshqa guruhlarga taalluqli bo‘lmagan) | 242,3 | 2% | 317,8 | 2% | 0,9 | 0% |
| Uy-joy kommunal xo‘jaligi | Suv ta’minoti | 2 000,7 | 13% | 3 017,0 | 18% | 3 193,6 | 12% |
| | Ko‘chalarni yoritish | 155,4 | 1% | 174,2 | 1% | 212,8 | 1% |
| | Boshqa toifalarga kiritilmagan uy-joy kommunal xizmatlar | 170,2 | 1% | 431,6 | 3% | 805,4 | 3% |
| Ijtimoiy himoya | Sohilbo‘yi mintaqasini rivojlantirish xarajatlari | 180,1 | 1% | 129,3 | 1% | 11,9 | 0% |
| | Boshqa toifalarga taalluqli bo‘lmagan ijtimoiy himoya masalalari | 364,7 | 2% | 468,0 | 3% | 563,0 | 2% |
| Jami: | | 14 878,9 | 100% | 16 809,8 | 100% | 26 302,4 | 100% |

2-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, iqlim bo‘yicha xarajatlar turli sektorlar va guruhlar doirasida notekis taqsimlangan. Qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik va ovchilikda iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan xarajatlarning eng katta ulushini ya’ni 2020-2023-yillar oralig‘ida mos ravishda 43%, 49% hamda 52%ni tashkil qilgan. Keyingi o‘rinlarda esa transport va suv ta’minoti sohalari qolganlariga nisbatan yuqoriroq ko‘rsatgichlarni tashkil etgan .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagi Jahon banki bilan birgalikda “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-271-son qarori qabul qilindi. Bunda, 2030-yilgacha “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” (iCRAFT) loyihasi uchun 46,25 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratilishi kelishildi. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va o‘sishni ta’minlash dasturida belgilangan vazifalarni bajarish, asosan, sanoatning kam uglerodli rivojlanishini ta’minlash maqsad qilib belgilandi. Loyiha quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilishi belgilab olindi.

3-jadval. “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” (iCRAFT) loyihasi. [8].

| **Asosiy yo‘nalishlar** | **Moliyalashtirishning taxminiy miqdori (mln AQSH doll.)** |
|---|---|
| 1-komponent: Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish | |
| 1.1-subkomponent: UNFCCC talablari asosida monitoring, hisobot va tekshirish (MRV) tizimini ishlab chiqish | 6,00 |
| Issiqxona gazlari kadastri | |
| Issiqxona gazlari reyestri | |
| Uglerod birliklari reyestri | |
| Ma’lumot va axborot markazi | |

| | |
|---|---|
| 1.2-subkomponent: “Yashil” o‘sish va uglerod savdosi bo‘yicha quyidagi vazirlik va idoralarning salohiyatini oshirish: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Strategik islohotlar agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi | 2,00 |
| 1.3-subkomponent: Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida Loyihani amalga oshirish guruhini tashkil etish. | 7,00 |
| Milliy qonunchilik bazasini tayyorlash | |
| Loyihani amalga oshirish guruhi (markazi)ning nizomini tayyorlash | |
| UNFCCC talablari asosida loyihani ko‘rib chiqishning milliy qoidalarini tayyorlash | |
| Xalqaro bozorlarda birinchi uglerod sotilishiga qadar moliyalashtirish (ish haqi, texnika) | |
| “Yashil energiya” sertifikatlari yagona elektron platformasini ishga tushirish | |
| 2-komponent: Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish natijalarini sotib olish | |
| 2.1-subkomponent: Energy Sector Reforms | 18,00 |
| 2.2-subkomponent: Energiya tariflari (subsidiya) islohotlari va unga taalluqli bo‘lgan aloqa kampaniyalari | 2,00 |
| Samarali tarif siyosati, narxlarni shakllantirish va amalga oshirish | |
| Aloqa kampaniyalarini ishlab chiqish | |
| 2.3-subkomponent: Ijtimoiy zaif uy xo‘jaliklarini energiya tariflari islohotlaridan himoya qilish bo‘yicha ijtimoiy yordam faoliyati | 5,00 |
| 2.4-subkomponent: Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda energiya samaradorligini oshirish choralarini ishlab chiqish va pilot loyihalarini amalga oshirish | 5,00 |

Loyiha 2 ta komponentlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, 20,0 mln AQSh dollari miqdoridagi moliyalashtirish hajmiga ega “Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish shartnomasi” komponenti hamda 25,0 mln AQSh dollari miqdoridagi moliyalashtirish hajmiga ega “Oqibatlarni yumshatish natijalarini sotib olish shartnomasi” komponentidan iborat (3-jadval).

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni boshlab berdi.

“Yashil iqtisodiyot”dan davlat yoki biznes emas, balki, eng avvalo, oddiy odamlar foyda ko‘rishi zarur. Uning ijtimoiy ahamiyatini ham aynan shunda ko‘rishimiz mumkin. Jahon tajribasi hamda yurtimiz iqtisodchilarining tahlillaridan ma’lum bo‘lishicha, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida “yashil texnologiyalar”ni joriy etish aholining yashash sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida shahardagi hayot qulaylashishi, bolalar o‘limi qisqarishi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi uzayishi kabi muammolar ham o‘z yechimini topadi. Lotin Amerikasi va Afrikaning ayrim mintaqalarida esa hatto tashqi migratsiya oqimlari qisqarib, inson kapitalining rivojlanishi kuzatilgan.

Albatta, “yashil iqtisodiyot” faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emas, balki, toza ichimlik suvi muammolari, qishloq xo‘jaligidagi yangi innovatsiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi, shaharlar barqarorligi, chiqindilarni oqilona boshqarish, o‘rmon hududlarini kengaytirish, cho‘llanishni maksimal kamaytirish kabi ko‘p qirrali va keng tarmoqli chora-tadbirlar kirib ketadi.

Unutmaslik kerakki, O‘zbekiston BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlari hamda Iqlim bo‘yicha Parij bitimiga ham qo‘shilgan. Bu shuni anglatadiki, har ikkala hujjat ham hukumatlar zimmasiga “yashil taraqqiyot” talablarini bajarish majburiyatini yuklaydi. Demak, ertami kechmi “yashil iqtisodiyot”ga baribir o‘tishimiz kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.- https://lex.uz/docs/-4539502
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori,- https://lex.uz/docs/-6303230
3. Буневич, К. Г., & Горбачева, Т. А. «Зеленые» тенденции в развитии мировой финансовой системы. Вестник Московского университета имени СЮ Витте. Серия 1: Экономика и управление, (1 (40)), 5260.
4. Söderholm, Patrik. "The green economy transition: the challenges of technological change for sustainability." Sustainable Earth 3.1 (2020):

5. Xashimova S. “Yashil iqtisodiyot”-T.: “Ma’rifat”, darslik, 2024 -bet 224.
6. Urubayev S.S “Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi”-Arxitektura.Qurilish.Dizayn, 2024 -bet 425
7. Иминов Т.К., Ваҳобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. «Зелёная экономика» как основа устойчивого развития. Монография. Т: «Алоқачи», 2019, bet 480.
8. O‘zbekiston Respublikasiva Iqtisodiyot va moliya vazirligi “Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va xalqaro hamjamiyatning texnologiyalarni uzatish to‘g‘risi”dagi MILLIY AXBOROTNOMA, 2023
9. “Iqlim o‘zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlil: O‘zbekiston” CPEIR // BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), 2023.

# MUNDARIJA

YOSHLAR – ERTAMIZ EGALARI! ........ 5
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**

ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ И ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОСТИ ........ 6
**Абдурахимов Аброр Зафарович, Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич**

O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR ........ 13
**Akramova Aziza Abduvohidovna**

“O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR” ........ 20
**Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li**

BARQAROR KELAJAK UCHUN BudjetLASHTIRISH: YASHIL TASHABBUSLAR UCHUN DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH ........ 27
**Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi**

UZBEKISTAN’S STRATEGY FOR TRANSITION TO “GREEN ACCOUNTING”: EXISTING PROBLEMS AND PROMISING OPPORTUNITIES ........ 32
**Ochilov Farxodjon Shavkatjon ugli, Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna**

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI: URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV ........ 37
**Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhriddin Bahriddinovich**

UZBEKISTAN’S TRANSITION TO A GREEN ECONOMY STRATEGY: CURRENT CHALLENGES AND PROMISING OPPORTUNITIES ........ 43
**Ikromova Munisa Ikrom qizi**

O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOT XARAJATLARINI DAVLAT BUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI ........ 48
**Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi**

YASHIL IQTISODIYOTNING DOLZARBLIGI HAMDA BARQAROR TARAQQIYOTGA TA’SIRI ........ 54
**Isroilov Eldorbek Elyorbek o‘g‘li**

GREEN FINANCE IN UZBEKISTAN: ADVANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT THROUGH INNOVATIVE STRATEGIES ........ 60
**Jenisbekova Nazerke Jenisbekovna Yuldasheva Nadira Viktorovna**

“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: O‘ZBEKISTON VA XITOY ........ 69
**Lazimov Ilhombek Komil o‘g‘li, Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li**

O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA XORIJ TAJRIBALARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH TAMOYILLARI ........ 77
**Mamayusupova Shohina Ulug‘bek qizi**

СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К “ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ”: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ. ........ 83
**Махмудова Юлдузхон Бахромжон кизи**

O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR ........ 89
**Mirzohamdamov Abdurasul Ravshan o‘g‘li, Beknazarov Zafarjon Ergashevich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI VA BU ORQALI BARQAROR IQTISODIYOTGA ERISHISHI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR........94
**Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi**

СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К “ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ”: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ........100
**Усмонов Дониёр Ибрагимович, Насырходжаева Диляфруз Сабитхановна**

NEW INSURANCE PRODUCTS IN GREEN ECONOMY: NEW OPPORTUNITIES AND RISKS IN THE FINANCIAL SECURITY CONTEXT........110
**Xodjaraxmanova Nazira Bakhtiyar kizi**

PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN........117
**Yo‘ldoshev Ozodbek Abduvohid o‘g‘li**

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA RESURSLARINI MOLIYALASHTIRISHGA OID LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH VA ULARNING STATISTIKASI........122
**Yoqubboyev Ilhomjon G‘ulomjon o‘g‘li**

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2024-yil 17-18-oktabr, № 5 maxsus son



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz